

Savol	Javob
Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida ishontirish nimalarni talab etadi?	Dalillar keltirishni, isbotlashni va mantiqni
" O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim aks holda u qurigan daraxt yoki toshga o'xshab qoladi, qurigan daraxt meva bera olmaganidek kelajakda bu o'qituvchidan hech natija kutib bo'lmaydi" ushbu so'zlar muallifini aniqlang?	Disterverg
.. – o'qitish usullarining bu guruhi o'qitish jarayonida o'quvchining faolligi o'qituvchining faolligidan yuqoriroqligi bilan ta'riflanadi.	Ta'limda faol usullar
... – boshqa kishi bilan muloqotga kirishishga va uni yetarli darajada saqlab turishga yordam beruvchi barcha ko'nikmalar	Kommunikativ kompetensiyalar
..... – bu o'qitishning ijtimoiy holatini tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlar; o'qituvchi va o'quvchi tomonidan yaratilgan psixologik muhit, o'qitish madaniyati va jismoniy muhit; turli ta'lim yondashuvlardan, shu jumladan, sinfni baholash va boshqarish usullaridan, foydalanish uslubi.	Ta'lim muhiti
“Dars vaqtini oqilona tashkillashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarini aniqlash” o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasining qaysi mehnat vazifasidagi ko'nikmalariga kiradi?	O'quv jarayonini rejalashtirish
“Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan. Ilm inson uchun g'oyat oily va muqaddas fazilat.” Ilmga berilgan ushbu ta'rif muallifi kim?	A.Avloniy
“Inson kapitalini rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning klassik va zamonaviy nazariyalari hamda shaxslar-aro va ijtimoiy aloqa jarayonlarini” quyidagilarning qaysi biriga mansub?	Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish
«Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim» texnologiyasi muallifi?	Lerner
...- ta'lim muassasasining boshqaruv organi. Nuqtalar o'rnidagi so'zni toping?	Pedagogik kengash
Bajarilgan ish to'g'risida fikrlash natijasida, mehnat faoliyati davomida olingan kasbiy bilim va ko'nikmalar	Tajriba
Berilganlardan qaysi biri o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholashning mezonlarga asoslangan tizimiga bo'g'liq emas?	Tarbiya berish tamoyillariga, nisbiy baholash mezonlariga, har bir sinfning o'zlashtirish darajasiga asoslanadi
Bir guruh o'quvchilar loyiha ishi ustida juda ko'p mehnat qildilar. Uni bajarib bo'lgach, darsda sinfdoshlari oldida taqdimot o'tkazdilar. O'qituvchi loyiha ishida ba'zi kamchiliklar bo'lsada, vazifa yaxshi bajarilganligi va dolzarbligi haqida gapirib, guruh a'zolarini maqtab qo'ydi. U nima uchun bunday qildi.	O'quvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni o'qishni davom ettirishga qiziqtirish uchun
Bir o'quvchining onasi o'g'lining hatti-harakatlarida o'zgarish sezganligini, u qo'pol muomalada bo'lishini, onaga nisbatan hurmatsizlik qila boshlaganini aytib, sinf rahbaridan maslahat so'radi. O'qituvchi oiladagi muhi bilan tanishib, bu ota-ona orasidagi munosabatlarning oqibati ekanligini aniqladi va onaga o'z maslahatlarini berdi. Shu bilan birga o'quvchining fikrlari,	Pedagogik texnika

xohish-istaklari, qiziqishlari, intilishlarini o'rganish hamda unga yordam berish maqsadida u bilan suhbatlar olib bordi. Bunda o'qituvchining ta'lim jarayoni ishtirokchilariga qanday munosabati aks etgan?	
Bir ona maktabga e'tiroz bilan keldi. U bolasi doimiy ravishda past baholar bilan uyga qaytishi, sinfdoshlari uning ustidan kulishlarini aytib, o'qituvchilar xonasida janjal ko'tardi. O'quvchining sinf rahbari yosh bo'lishiga qaramay, bu ona bilan xushmuomala bo'ldi va uni tinchlantira oldi. Bu o'qituvchi ayni vaziyatda qo'llagan og'zaki ta'sir qilishning xushmuomalalik mezonlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorlarni aniqlang: 1. Shirinsuxanlik va insoniylik tuyg'ularini namoyish etish 2. Suhbatning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi 3. O'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi 4. Ta'lim va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish 5. Mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirish	1,2,3,5 www.idum.uz saytidan yuklab olindi
Birinchi toifali o'qituvchi - kamida besh yillik ish tajribasi bu.....	Amaliy ish tajribasiga qo'yiladigan talab
Bola tarbiyasida eng muhim ijtimoiy nazorat instituti nima?	Oila
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishga qabul qilinayotganida o'rta maxsus kasb hunar ta'limi (texnikum, kasb-hunar kolleji) ga yo'l qo'yilishi bu.....	Faoliyatni amalga oshirishga ruxat berish uchun maxsus talab
Boshqaruv metodlari nechta?	3
Dars boshlanishidan avval o'qituvchi har bir o'quvchining darsdan tashqari vaqtda nima bilan shug'ullanishi haqida so'radi. Dars davomida barcha o'quvchi faol ishtirok etdi. O'qituvchi ta'lim samaradorligini ta'minlash maqsadida qanday usuldan foydalandi?	O'quvchilar darsda faol qatnashishlarini motivatsiyalashda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalandi
Dars jrayoniga zamonaviy axborot texnologiyalar integratsiyasini rejalashtirish quyidagilarning qaysi biriga taaluqli?	Mehnat harakatlari
Darsda mavzuga mos keladigan ko'rgazmali va tarqatma materiallardan qanday maqsadda foydalaniladi?	Ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun
Darsda o'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga ajratib, muammoli vaziyat topshirig'ini berdi. Har bir guruh turli usullarda muammoni hal qilishga urindilar va yechimni taqdim etdilar. O'qituvchi tomonidan qanday usul qo'llanilgan.	
Darsga qo'yiladigan didaktik talablar – bu:	Har bir dars aniq g'oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo'lishi lozim
Darslarda mavzuga mos keladigan ko'rgazmali va tarqatma materiallardan qanday maqsadda foydalaniladi?	O'z-o'zini rivojlantirish va ksbiiy o'sish uchun
Darsning boshlashdan avval o'qituvchi har bir o'quvchining darsdan tashqari vaqtda nima bilan shug'ullanishi haqida so'radi. Dars davomida barcha o'quvchi faol ishtirok etdi. O'qituvchi ta'lim samaradorligini ta'minlash maqsadida qanday usuldan foydalandi?	O'quvchilar darsda faol qatnashishlarini motivatsiyalashda ularning shaxsiy qiziqshlaridan foydalandi.
Davlat talim standartlarini bajarish qanday talim muassasalari uchun majburiy hisoblanadi?	Barchasi uchun
Faoliyat doirasida o'qituvchi o'quvchilarning kognitiv va amaliy	1-B, 2-A, 3-G, 4-V

ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanadi. O'qitish usullari va ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini moslashtiring? 1. Izohli ko'rgazmali 2. Reproduktiv 3. Muammoli 4. Tadqiqot A) O'quvchi belgilangan model bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi – o'qituvchi ma'lumot beradi, o'quvchilar uni idrok etadilar B) O'qituvchi ma'lumot beradi – o'quvchi berilgan ma'lumotni qabul qiladi V) O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik faoliyatini amalga oshiradilar (nazariy yoki amaliy) G) O'quvchilar oldilariga qo'yilgan masalani hal qilish ketma-ketligiga rioya qilgan holda vazifani bajaradilar va shu orqali bilimlarini rivojlantiradilar D) O'quvchilar oldiga qo'yilgan muammoni hal qilishda o'qituvchining ko'rsatmalaridan bosqichma-bosqich foydalanadilar.	
Fikrlash jarayonini yuqorida darajada talab etuvchi vaziyat turi.	Muommoli vaziyat
I.N.Semyonov kommunikativ refleksiyaning qanday sharhlagan?	Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi
Ikkinchi toifali o'qituvchi - kamida uch yillik ish tajribasi bu.....	Amaliy ish tajribasiga qo'yiladigan talab
Intellektning asosiy sifatlarini aniqlang?	Ijod; Fikrlash tezligi, mahorat
Jismoniy tarbiyaning maqsadi nima?	Manaviy, ruhiy, jismoniy sog'lomlikka erishish
Kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt qaysi qatorda keltirilgan?	Shaxs
Kasbiy faoliyat turlari va mehnat vazifalarini moslashtiring: 1. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish 2. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish 3. Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik 4. Ta'lim samaradorligini ta'minlash A) O'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish B) Ziddiyatlarni hal qilish, sinfda va undan tashqarida muloqot qilishi uchun ijobiy muhit yaratishda muloqot o'tkazish C) Tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislarni maktab hayotiga jalb qilish D) O'quvchilarning jamoaviy va hamkorlikdagi loyihaviy ishlarini tashkil etish E) Darsdan tashqari turli madaniy tadbirlarda ishtirok etish	1-a, 2-b,3-c,4-d
Kasbiy faoliyat uchun o'qish va shaxsiy tajriba vositasida ma'lumotni o'zlashtirish natijasi nima deb ataladi.	Bilimlar
Kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o'zlashtirilgan orttirilgan	Pedagogik tajriba

bilim ko'nikma va malakalar majmui nima deb ataladi?	
Kasbiy standart tuzilmasi nechta kompetensiyalarni o'z ichiga oladi?	2
Kombinatsiyalashgan yoki murakkab tuzilishga ega bo'lgan dars turini aniqlang?	Aralash dars
Kompetensiya so'zining ma'nosi nima?	Kompetensiya – lotincha so'z bo'lib tegishli,layoqatli degan ma'noni anglatadi
M.Rokich inson qadriyatlariga necha xil ta'rif beradi?	2
Maktabda ta'lim sifatini aniqlash uchun monitoring o'tkazish rejalashtirildi. Uning vazifalari to'g'ri ko'rsatilgan variantlarini belgilang: 1. 3Ta'lim sifati, uni tahlil qilish va baholash haqida kerakli va yetarli ma'lumotlarni to'plash 2. Sifatli ta'lim uchun ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini nazorat qilish 3. Ta'lim jarayoni ishtirokchilariga rag'batlantiruvchi va motivatsion ta'sirni tashkil etish 4. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ijtimoiy hotirjamligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish 5. Ta'limni yanada rivojlantirish prognozi va zarur tuzatishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish	1,2,3,5
Maktabda ta'lim sifatini aniqlash uchun monitoring o'tkazish rejalashtirildi.Uning vazifalari to'g'ri ko'rsatilgan variantlarni belgilang. 1.Ta'lim sifati,uni tahlil qilish va baholash haqida kerakli va yetarli ma'lumotlarni to'plash 2.Sifatli ta'lim uchun ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini nazorat qilish. 3.Ta'lim jarayoni ishtirokchilariga rag'batlantiruvchi va motivatsion ta'sirni tashkil etish. 4.Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ijtimoiy hatirjamligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish . 5.Ta'limni yanada rivojlantirish prognozi va zarur tuzatishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab Chiqish	1,2,3,5
Mezonlarga asoslangan baholash tizimi qaysi muommolarni hal qiladi ? To'g'ri javoblarni belgilang . 1.Ob'ektiv va shaffof baholash tizimi orqali ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadi 2.Xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori sifatli baholash mexanizmini shakllantiradi. 3.O'quvchining o'qishdagi yutuqlari haqidagi dalillarni to'plash uchun yordam beradi. 4.Asosiy natijalarni umumlashtirish va ta'limiy natijalarni tahlil qilishga yordam beradi .	1,2,4
Mimika nima?	Fikrlarni so'zsiz muskullar orqali bayon qilish
Monoton ohangdagi nutq qanday oqibatlariga olib keladi?	Bilimlarni o'zlashtirishga olib keladi
Moslikni toping? 1. Kreativlik	1-C, 2-A

2. Kommunikativlik a) O'qituvchining o'quvchilar bilan to'g'ri muomala qila olishi va muloqot o'rnatish qobiliyati b) Kelib tushayotgan axborotni mulohaza qilib, baholab, kuzatuv va tajribalarga asoslanib qabul qilish qobiliyati c) Yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga moyillik, nostandart fikrlash va boy tasavvurga ega bo'lish qobiliyati	
Muayyan ish, xatti harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, moxirlik bilan san'at- korona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui nima deb ataladi?	Mahorat
Mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga nimalar kiradi?	Diqqat, Kuzatuvchanlik, Hayol
N.Semyonov kommunaktiv refleksiyaning qanday sharhlagan?	Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi
Nima uchun o'quvchilarning yutuqlarini baholash va bahoni asoslab berish juda muhim?	Maqsadga qay darajada erishganligini ko'rsatish, o'qishni davom ettirishga qiziqtirish, motivatsiya berish
Nima uchun o'quvchilarning yutuqlarini baholash va bahoni asoslab berish juda muhim?	Maqsadga qay darajada erishganligini ko'rsatish, o'qishni davom ettirishga qiziqtirish, motivatsiya berish
Noverbal nutq turlari to'g'ri keltirilgan qatorni toping?	Mimika, pantomimika nutq, signifikatsiya, daktiologik nutq, Morze alifbosi
O'qituvchi dars davomida aksariyat o'quvchilarni tingladi. Noto'g'ri fikrlarni rad etmasdan, yo'nalitiruvchi savollar bilan yangi mavzuni tushuntirishga harakat qildi. O'qituvchi tomonidan bunday usul nima maqsadda qo'llagan edi?	Dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish maqsadida
O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga o'tilgan mavzular yuzasidan savollar berdi. So'ng o'quvchilar olgan bilimlarini qo'llash maqsadida kichik guruhlarda amaliy topshiriq bajardilar. Dars yakunida o'rganilgan mavzu yuzasidan o'z xulosalarini taqdimot qildilar. Shunda o'qituvchi qaysi dars turidan foydalandi?	O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish
O'qituvchi faoliyati qirralari -....	Bilimdonlik va rivojlantiruvchanlik, Ko'nikma va malaka
O'qituvchi mualliflik dasturi va maktabni rivojlantirish konsepsiyasi ustida ish olib bordi. Bunday jarayon o'qituvchining qaysi faoliyat turiga kiradi?	O'qituvchining innovatsion faoliyati
O'qituvchi o'quvchiga mustaqil bajarish uchun vazifa berdi. Vazifani bajarishda faqatgina berilgan adabiyotlar ro'yxatidan foydalanmasdan, o'z shaxsiy fikr va mulohazalari bilan boyitishni so'radi. Shunda o'qituvchi o'quvchining ijodkorligini rivojlantirish uchun qanday ta'lim turidan foydalandi.	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim
O'qituvchi o'quvchilarga yangi mavzuni ma'ruza tarzida tushuntirib berdi. Dars davomida o'qituvchi faol bo'lib,	monolog

o`quvchilarga qaratilgan nutq so`zladi. Bunda o`qituvchi Faoliyatida Kuzatiladigan nutqning qanday shakli namoyon bo`ldi?	
<p>O`qituvchi o`quvchilarni guruhlarga ajratib, bir necha yo`nalishlarda loyiha ishlari mavzularini taqdim etdi. Quyida berilganlardan ekologik loyiha turiga kiradigan variantlarni belgilang:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Maktabda chiqindilarni saralab yig`ish ishlarini tashkil etish 2. Maktab hududidagi sport maydonchasini yoritish uchun shamol generatorini yaratish 3. Tog` chang`i dam olish zonasiga sayohat xarajatlarini hisoblash 4. Maktabda "Ekologik muammolar" mavzusidagi tadbirni tashkillashtirish	1, 2
O`qituvchi yangi mavzuga oid faktlar va mulohazalarni keltirdi hamda ularga doir savollar bilan murojaat qildi. Bunda o`quvchida qanday ko`nikma turi shakllantiriladi ?	Bilish
O`qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda qanday yo`nalishlarda olib boriladi?	O`qituvchining shaxsiy fazilatlar bo`yicha tayyorgarligi; O`qituvchining ruhiy psixologik tayyorgarligi;</p> <p>o`qituvchining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi; o`qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.
O`qituvchining pedagogik jarayonda sog`lom muhitni yarata olishi, o`quvchilar va ta`lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etishi, turli ziddiyatlarni o`z vaqtida anglay olishi va bartaraf etishi qaysi kasbiy kompetensiyada namoyon bo`ladi.	Psixologik
O`quvchiga amaliy topshiriqni bajarish uchun muayyan vazifa va uni amalga oshirish shartlari belgilab berildi. O`quvchi o`z faoliyatini shunga muvofiq rejalashtirdi. Bu qobiliyat qaysi faoliyat turiga kiradi?	Regulyativ (maqsadni belgilash, rejalashtirish, o`z-o`zini tartibga solish, to`siqlarni yengish
O`quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlari berilgan qatorni aniqlang?	O`quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish; o`quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish; o`qituvchining muloqot madaniyatini to`g`ri tashkil etishi.
O`quvchilar Konstitutsiya kuniga bag`ishlangan tadbir uyushtirmoqchi bo`ldilar. Bunga boshqa sinf o`quvchilarini ham jalb etmoqchi ekanliklari haqida o`qituvchiga ma`lum qildilar. O`qituvchi bu vazifani ular mustaqil bajarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Shunda o`qituvchi tarbiyaviy faoliyat turining qaysi yo`nalishlarni amalga oshirgan hisoblanadi?	1,3

1. O`quvchilarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishda yordam berish va qo`llab quvvatlash 2. O`quvchilarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam berish</li> <li>3. O`quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, fuqarolik pozitsiyasi madaniyatini rivojlantirish 4. O`quvchilarda fuqarolik kompetensiyalari va media savodxonligini shakllantirish	
O`qitish faoliyati tarkibini to`g`ri aniqlang:	O`quv rejasi,o`quv dasturi,o`qitish metodlari,manbalar
O`qituvchi maktab faoliyatida o`quvchining ota-onasi bilan tortishib qoldi va mana shu vaziyatda qanday hodisaga duch keldi?	Pedagogik nizo
O`qituvchi muayyan mavzu bo`yicha o`quvchilarga tayyor bilimlarni taqdim etib, so`ng mustahkamlash, umumlashtirish, tizimlashtirish, va nazorat qilish jarayonini tashkil etdi. Bu jarayon qanday ta`lim turiga taalluqli?	Reproduktiv ta`lim
O`qituvchinng o`quvchilar bilan muloqot jarayonida paydo bo`ladigan turli ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish uchun.....?	Avvalo iqtidoriga,pedagogic va psixologik mahoratiga tayanish kerak
O`quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlarini ko`rsating?	Ifodali,ko`rgazmali,amaliy
O`quvchi bir loyiha ustida ishladi. O`qituvchi tomonidan loyiha taqdimotiga to`g`ri fikr bildirilgan variantni toping?	Vazifani belgilangan muddatdan oldin bajarganligini ta`kidlamoqchiman, ammo taqdimotdagi 1-muammo uchun keltirilgan ma`lumotlarni joriy yil uchun yangilash lozim. Loyiha ishi talab darajasida bajarilgan. Taqdimotga ba`zi o`zgartirishlar kiritish lozim. Darsdan so`ng ular haqida batafsil gaplashib olish uchun ko`rishsak ma`qul bo`lardi.
O`quvchilarning loyixaviy va jamoaviy ishlarini tashkil etish, dars mavzusini amaliyot bilan bog`lash kabilar qaysi bo`limga taaluqli ?	Ta`lim samaradorligini ta`minlash
O`zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog`liq bo`lgan kommunikativ qobiliyatning qanday yo`nalishlari mavjud?	O`quvchilarni ishontirish; o`quvchilar ongiga ta`sir etish; o`zgalarga taqlid etish.
Obyekt va marshrut bilan oldindan tanishib chiqish rejasini ishlab chiqish qanday dars shakli mazmunini ifodalaydi	Ekskursiya darslarining
Olingan bilimlar kònikma va malakalarni mustahkamlash qòshimcha malumotlarni òrganish maqsadiga ega bolgan òquv shakli	Mustaqil ta`lim
Oliy toifali o`qituvchi – kamida 8 yillik ish tajribasi talab qilishi	Amaliy ish tajribasiga

qanday talab hisoblanadi?	qo'yiladigan talab
Òqitish jarayoni tushunchasi mohiyati mazmuni qaysi bòlimga tegishli	Didaktika
O'qituvchi individual nutq madaniyatining nechta asosiy xususiyatlari bor?	6
O'qituvchi o'quvchining mustaqil faoliyatlari darajasini oshirmoqchi. Buning uchun u o'qitish usullari ketma-ketligini qanday tanlashi lozim? 1.Reproduktiv usul 2.Axborot to'plash-reseptiv usul 3.Muammoli ta'lim usuli 4. Tadqiqot usuli	2,1,3,4
O'qituvchi yangi mavzuga oid faktlar va mulohazalarni keltirdi hamda ularga doir savollar bilan murojaat qildi. Bunda o'quvchida qanday ko'nikma turi shakllanadi?	Bilish
O'qituvchining nafaqat ta'lim tarbiya jarayonida balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalar majmui nima deyiladi?	Pedagogik texnika
O'qituvchining qaysi ijodkorligida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalar yaratish mujassamlashgan bo'ladi?	Kreativ ijodkorlikda
O'quv materiallarni aniq,ravshan,oson tushuntirish qaysi pedagogik qobiliyatga kiradi?	Didaktik qobiliyat
O'quvchilar jamoasini boshqara olish pedagogik texnikani qaysi malakasiga tegishli bo'ladi?	Shaxsiy pedagogik uddaburonlik
O'quvchilarni vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik jihatlarni tushuna olish qobilayatini belgilang?	Perseptiv qobiliyat
Pantomimika nima?	Gavda,qo'l va oyoq harakatidir
Pedagog uchun eng zarur nutq madaniyatini belgilang?	Nutqning grammatik to'g'riligi,uning leksik boyligi,aniq va ravshan ifodalanganligi
Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydigan shaxslarni aniqlang. 1. Belgilangan ro'yxat bo'yicha kasalliklarga chalinganlar 2. Sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlangan shaxslar. 3. Sud hukmi bilan Muomalaga layoqatsiz deb topilganlar 4. Tarkibi va turlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan jinoyatlar uchun avval yoki hozir Jinoiy javobgarlikka tortilganlar 5. Oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar	1,2,3,4
Pedagogik mahorat nima?	Pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim –tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratni doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi

	faoliyatdir.
Pedagogik mahorat nimalar yig'indisidan iborat?	Pedagogik- psixologik, metodik bilimlar majmuasidan
Pedagogik mahoratning asosini tashkil etuvchi komponentlarni aniqlang?	O`qituvchilik kasbiga sadoqat; o`z fanining o`qitish metodikasini mukammal bilishi; pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi; pedagogik texnikani o`z o`rnida qo`llay bilishi
Pedagogik mahoratning qaysi tarkibiy qismida pedagog tomonidan mutaxassislik bilimlarining puxta egallaganligi ko'rsatiladi?	Pedagogik bilimdonlikda
Pedagogik muloqot – bu...	O`qituvchining o`quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatida eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir
Pedagogik muloqot uslublari to'g'ri keltirilgan qatorni toping .	Liberal, Avtoritar, Demokratik
Pedagogik muloqotning nechta asosiy yo'nalishi mavjud?	4
Pedagogik nizolarning kelib chiqishiga qanday muayyan omillar ta'sir etadi? 1.tarbiya omili. 2.munosabat omili. 3.axborot omili. 4. Xulq omili	2,3,4
Pedagogik takt, nutq madaniyati, o'zini qo'lga ola bilishi pedagogik texnikaning qaysi malakasiga taalluqli ?	Kasbiga xos xislatlar
Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda qaysi ko'rinishda ish olib borish alohida ahamiyatga ega?	Guruh
Pedagogik texnikani guruh bo'lib o'rgatishda , guruhda pedagoglar soni nechta bo'lishi to'g'ri bo'ladi?	10-14
Pedagogik texnikaning birinchi guruh komponentlariga nimalar kiradi?	Mimika, pantomimika, Perseptiv qobiliyatlar, Nutq texnikasi
Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi mavjud bo'lmagan fan qaysi qatorda keltirilgan?	Mantiq
Pedagogning kasbiy jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati nima deb yuritiladi?	Pedagogik ijod
Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlarining to'g'ri ketma-ketligini aniqlang: 1. Ushbu qaror bo'yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo'llarini izlash. 2. Yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelish.	3,2,1

3. O`z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarni aniqlash.	
Pedagogning talabalar, ularning ota - onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi pedagogik odobning qaysi asosiy shaklini belgilaydi?	Pedagogik obro'
Qaysi amerikalik olim oliy o`quv yurtlari uchun pedagogik texnologiya usulining individuallashtirilgan tizimini ishlab chiqqan?	F.S.Keller
Qaysi dars turida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar mustaqil ish olib boradilar, o'qituvchi darsning tuzilishini va olib borilishini ta'minlaydi?	Yangi materiallar bilan tanishish
Qaysi dars turida o'quvchilar tamonidan o'zlashtirilgan bilimlarning mavjud kamchiliklari to'ldiriladi va o'rganilayotgan yangi mavzuni muhim g'oyalari ochib beriladi?	O'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish
Qaysi dars turida o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish, ko'nikma va malakalarni shakllanganlik darajasini belgilab olish mumkin?	Bilimlarni nazorat darsida
Qaysi holatlarda namonaviy o`quv rejalariga o`zgartirish kiritish mumkin?	O`quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda
Qaysi holatlarda namonaviy o`quv rejalariga o`zgartirish kiritish mumkin?	O`quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda
Qaysi so`z metod tushunchasi mohiyati	Maqsadga erishish usuli
Qaysi tushuncha ehtiyoj, intilish, qiziqish kabi ma'nolarni anglatadi?	Motiv
Qobiliyat bu...	Shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisidir.
Qobiliyatlar tizimi nechta xususiyat bilan farq qilinadi?	4
Qobiliyatni ilk va boshlang'ich tarkibiy qismini toping?	Iste'dod
Qosh, ko'z, yuz muskullarining harakati nimani anglatadi?	Mimik ifodaning asosiy detalini
Quyida keltirilgan hikmatli so`z muallifini aniqlang. "Til shirinligi – ko`ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so`z sof ko`ngillar uchun asal kabi totlidir"	Alisher Navoiy
Quyidagilardan qaysi biri "O`quv jarayonini rejalashtirish" dagi zaruriy bilim?	Fanni o`qitishning turli usullari
Quyidagilardan qaysi biri "O`quv jarayonini rejalashtirish" dagi mehnat harakati?	Tegishli o`quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni

	rejalashtirish
Refleksiya – bu...	Insonning uzluksiz hayot jarayonini go'yo bir daqiqaga to'xtatib, uzib qo'yadi va insonni xayolan unig sarhadlaridan olib chiqib ketadi, shu vaziyatda insonning har bir harakati hayot haqidagi falsafiy fikr-mulohazalari muayyan bir xarakter kasb etadi
Refleksiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?	Lotin tilidan olingan bo'lib "reflexsio" – orqaga qaytish ma'nosini ifodalaydi.
Rejalashtirilayotgan darsning shakl va usullari nimalarga mos kelishi lozim?	Darsning maqsadlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirishiga mos kelishi lozim
Sabr achchiqdir ammo foyda beruvchi qattiqdir ammo zararni rad etuvchi, sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir. Ushbu jumla kimga tegishi?	Alisher Navoiy
Shaxsning ichki qobiliyati nimada aks etadi?	O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilishi, irodas mustahkam, qa'tiyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr mulohazasini erkin bayon eta olishida.
Sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladigan qobiliyatni aniqlang?	Tashkilotchilik
Sinfda ingliz tili darsi. O'qituvchiga nafaqat o'zining guruhi, balki kasal bo'lib qolgan o'qituvchining guruhida ham mashg'ulot olib borish vazifasi berilgan. O'quvchilar o'zlarini juda yomon tutmoqdalar: baland ovozda gaplashmoqdalar, urishmoqdalar, bir-birlariga turli qog'oz qushchalarni otmoqdalar va hakoza. O'qituvchiga nisbatan Beodoblik (ehtiyotkorona, to'gridan-tog'ri emas) qilmoqdalar. Bunday vaziyatda o'qituvchi nima qilishi kerak?	1,3,4
1. O'quvchilar diqqatini qiziqarli ma'lumotlar bilan jalb etish kerak. 2. Darsni shu holatda davom ettirish kerak. 3. Ko'proq qiziqarli o'yinlar o'tkazish orqali o'quvchilarning diqqatini darsga qaratish zarur. 4. O'quvchilarning tartib intizom va o'quvchining majburiyatlari haqida talab qo'yishi mumkin.	
Siz darsni o'ta boshladingiz, barcha o'quvchilar tinchlanishdi, jimlik cho'kdi va birdan sinfda kimdir baland ovozda kulib	Ta'lim tarbiya jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan

yubordi. Siz hech narsa deyishga ulgurmay, kulayotgan o`quvchiga savol va hayrat bilan qaraganigizda, u ko`zingizga tik qarab: "Menga har doim sizga qarash kulgili tuyuladi va siz dars boshlaganingizda kulgim keladi"- dedi. Bunga nisbatan o`qituvchi "Kayfiyating yaxshi ekanligidan xursandman"- deb javob berdi va darsni davom ettirdi. Bunda o`qituvchi o`quvchi bilan muloqotning modellashtirish bosqichida nimalarga e`tibor berdi?	qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko`ra olish va bartaraf etish
So`z bilan og`zaki ta`sir qilishda o`qituvchi nutqiga qanday bo`lishi maqsadga muvofiq bo`ladi?	O`qituvchi nutqi nihoyatda muxtasar, ravon, va muloyim bo`lishi, intonatsiyalar o`z o`rnida ishlatilishi kerak.
So`z bilan og`zaki ta`sir qilishda o`qituvchi nutqi qanday bo`lishi maqsadga muvofiq bo`ladi?	O`qituvchi nutqi nihoyatda muxtasar, ravon, va muloyim bo`lishi, intonatsiyalar o`z o`rnida ishlatilishi kerak.
Ta`lim jarayoni asosini qaysi tarkibiy qismlar tashkil etadi?	Ta`lim maqsadi, Ta`lim mazmuni, Ta`lim shakli
Ta`lim jarayonini ishtirokchilarning huquq va burchlari qaysi meyoriy hujjatda ko`rsatib o`tilgan?	Ta`lim to`g`risidagi qonunda
Ta`lim sohasidagi davlat siyosati tamoyillaridan birini ko`rsating?	Ta`limning uzluksizligi va izchilligi
Ta`lim to`g`risida qonunning nechanchi moddasida o`qituvchilarning malaka toifasini olishi haqida keltirilgan?	13
Ta`lim beruvchi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi didaktikaning qaysi jihatini yoritadi	Ta`lim funksiyalari
Ta`lim bu--?	Belgilangan maqsadga erishish yo`lida o`qituvchi va o`quvchining o`zaro hamkorligi
Ta`lim jarayoni nimalardan iborat?	Maqsad,nazorat,baholash ,natija,ta`lim metodlari
Ta`lim samaradorligini oshirish uchun o`qituvchi darsda ko`rgazmali qurollardan foydalanishni rejalashtirdi. Qo`l ostida ko`rgazmali va tarqatma materiallar juda ko`p edi. O`qituvchi tomonidan to`g`ri tanlangan tarqatma materiallar qatorini belgilang	Dars mavzusiga mos keladigan namoyish va tarqatma materiallar
Ta`lim va tarbiya jarayonida o`qituvchi tomonidan pedagogik ta`sir ko`rsatishning asosiy usullari berilgan javobni aniqlang?	Talab, Istiqbol, rag`batlanirish va jazolash, jamoatchilik fikri
Ta`lim jarayonida darsning nechta turi qo`llaniladi?	6
Tanaffus vaqtida ikkita o`quvchi tadbirda boshlovchi bo`lish uchun o`zaro tortishib qolishdi. Bu holatning ustiga kelib qolgan o`qituvchi vaziyatni yumshatish uchun qanday yo`l tutgani ma`qul?	Har bir o`quvchiga alohida muhim rol berish
Tarbiya tamoyillari nechta?	7
To`garaklar, klublar, olimpiadalar, viktorinalar, ko`rgazmalar, ekspeditsiyalar va hokazolar ta`limni tashkil etishning qaysi shakliga misol bo`la oladi?	Yordamchi
Uzluksiz talim tizimi necha turdan iborat?	7

Yosh mutaxassis hamkasbining tajribasini o`rganish va ta`lim jarayonini tahlil qilish maqsadida uning darsini kuzatdi. Dars davomida hamkasbi mavzuni oddiydan murakkabga tomon tushuntirgani, barcha berilayotgan mavzular ilmiyligi, yangi axborotlarning hayotiyligini qayd qilib o`tdi. Yosh mutaxassis qanday dars tahlili usulidan foydalandi?	Metodologik tahlil
Yosh mutaxassis ko`p yillardan beri faoliyat yuritayotgan ustozning darsiga kirib, undan dars berish mahoratini o`rganmoqchi bo`ldi. Dars davomida o`quvchilar guruhlarda erkin fikr bildirdilar, o`z g`oyalaribilan almashdilar, bajarilgan ishlardan to`g`ri xulosa chiqardilar, o`qituvchi esa fasilitatorlik vazifani bajarib, o`quvchilarning faol bo`lishiga imkoniyat yaratdi. Darsdan mamnun bo`lgan yosh mutaxassis ustozidan bu tajribaga qanday yo`llar bilan erishganini so`radi. O`qituvchilar faoliyatida pedagogik tajribani hosil qilishdagi to`g`ri yo`llarni tanlang? 1. Mustaqil o`qib-o`rganish 2. Ilg`or ish tajribalari bilan tanishish 3. Ilmiy anjumanlarda ishtirok etish 4. O`zaro tajriba almashish 5. Hamkorlikda pedagogik izlanishlarni olib borish 6. Tajribali ustozlardan maslahat olish 7. Faqat talabalik davrida olingan nazariy bilimlarga tayanish	1,2,3,4,5,6
Yosh mutaxassis yangi mavzuni tushuntirib bo`lgach, o`quvchilarning quyidagi savoliga duch keldi: “Bularning bizga nima keragi bor? Biz bu narsani o`rganishni xohlamaymiz”. Bu holatda o`qituvchi o`quv jarayonning qaysi tarkibiy qismlarini to`liq amalga oshirmagan?	Maqsad, mazmun